

O'qish savodxonligi

IV qism

4



U.B.Aydarova
N.K.Azizova

O‘qish savodxonligi

4-sinf

IV qism

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun darslik

Ta‘limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik
kengash tomonidan tavsiya etilgan.



Toshkent – 2023

UO'K: 808.545(075.3)
BBK 74.202.5ya72
T 60

Aydarova U. B.

O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. IV qism. / U.B.Aydarova, N.K.Azizova, – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 80 b.

Taqrizchilar:

- Sh.Y.Muslimova – Toshkent shahri 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;
M.M.Umarova – Toshkent shahri 222-umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



**Og'zaki
topshiriq**



**Guruh bo'tib
ishlang**



**Diqqat bilan
o'qing**



Bu – qiziq!



**Eslab
qoling!**



**Topshiriqni
bajaring**



**Savollarga
javob bering**



Uyga vazifa



**Mantiqiy
topshiriq**



Izohli lug'at

I bo'lim.

Manguga muhrlanganlar





Sharq musavvirlik (rassomlik) san'atida yorqin yulduz bo'lib porlagan allomalardan biri – Kamoliddin Behzod. U o'z zamondoshlari tomonidan “musavvirlar peshvosi, ustози” deb e'tirof etilgan. “Ikkinchi Moniy” degan faxriy unvonga sazovor bo'lib, Yevropada “Sharq Rafaeli” deb tan olingan. Buyuk musavvir Kamoliddin Behzod

Hirotda tug'ilib o'sgan va shu yerda musavvir sifatida shakllangan.



Yerga chizilgan rasm

(Rivoyat)

Sulton Husayn Boyqaro navkarlari bilan ovga yo'l olibdi. Hirot shahridan chiqib, sayhonlikdan o'tib ketayotganlarida oldindagi qo'riqchi navkarlar nogoh to'xtab qolishibdi. Ulardan biri yerga ishora qilib debdi:

– Oliyhazrat, bu suratni qarang!

Podshoh ot surib kelib, navkar ko'rsatgan joyga qarabdi. U yerda pahlavon Rustami dostonning surati aks ettirilgan edi. Hamma suratga tikilib qolibdi.

– Qanday nazokat ila chizilgan bu surat! Musavvirni topmoq kerak, – debdi Husayn Boyqaro.

Ovga chiqqanlar orasida Kamoliddin Behzodning ustози Mavlono Mirak Naqqosh ham bor ekan.

– Oliyhazrat, – debdi u podshohga ta’zim qilib, – fikrimcha, bu suratni o’n ikki yoshli Kamoliddin Behzod chizgan ko’rinadi. Undan boshqa biror mo’yqalam sohibi bu kabi chizolmaydi.

– Kamoliddin Behzod... iste’dodli yigit ekan.

– Yaqinda Alisher Navoiy bu yigitchanning mashqlaridan ko’p mamnun bo’lib, o’z suhbatiga chaqirdi. Menga odam jo’natib, Kamoliddin Behzodni o’z kutubxonasiga xizmatga olishni bildirdi, – dedi Mirak Naqqosh Alisher Navoiyga minnatdor boqib.

– Do’stim, xayrli ish qilibsiz. Saltanatimizda bu yosh iste’dod sohibi ulug’ bir musavvir bo’lib kamol topgay, – dedi Husayn Boyqaro do’sti Alisherbekka.

...Saroy ahli yerga chizilgan suratni aylanib o’tib, yo’lga tushdilar.



1. Rivoyatda qaysi shaxslarning nomi tilga olingan? Ular haqida nima deya olasiz?
2. Nima uchun qo’riqchi navkarlar yerga ishora qilishdi?
3. Ayting-chi, nega bu surat hammaning diqqatini tortdi?
4. Musavvir haqida qanday ma’lumotlarni bilib oldingiz?



sayhonlik – keng maydon

peshvo – ma’lum bir sohada yetakchi, ilg’or kishi



Rivoyatni rollarga bo'lib o'qing.
Rivoyatni sahnalashtiring.



Kamoliddin Behzodning tasviriy san'at sohasining rivojlanishiga hissa qo'shgan betakror bo'yoqli asarlari hanuz dunyoni hayratga soladi. Uning asarlari bilan bezatilgan qo'lyozmalar O'zbekiston, AQSH, Buyuk Britaniya, Eron, Rossiya va boshqa davlatlardagi kutubxona, qo'lyozma fondlari, muzeylar hamda shaxsiy majmualarda saqlanadi. Musavvir o'z asarlarida Sharq miniatyura san'ati xususiyatlarini saqlagan holda, uni yangi ijodiy an'analar, mazmun hamda yangi mavzular bilan boyitdi. Behzod ijodi va merosi keng o'rganilmoqda. Uning nomini abadiylashtirish maqsadida Kamoliddin Behzod nomidagi davlat mukofoti ta'sis etilgan. Milliy rassomlik va dizayn institutiga Kamoliddin Behzod nomi berilgan. Toshkentda Behzod nomidagi memorial bog'ga asos solingan. Buyuk rassom tomonidan yaratilgan asarlar ko'plab san'at namoyandalari uchun har doim ilhom manbai va o'rnak bo'lib xizmat qilgan.



Rivoyatni qayta hikoya qiling.

MUNDARIJA

I bo'lim. Manguga muhrlanganlar

1-mavzu	Yerga chizilgan rasm.....	4
2-mavzu	Sohibqiron bobom mening.....	7
3-mavzu	Sirli sandiq.....	11
4-mavzu	O'tmishdan ertaklar.....	14
5-mavzu	Bastakor Yunus bobo.....	17
6-mavzu	Bo'lim yuzasidan takrorlash.....	20

II bo'lim. Qiziqishlardan kasblargacha

7-mavzu	Kasblar gulshodasi.....	23
8-mavzu	Cho'rtanbaliq va mushuk.....	29
9-mavzu	Mard o'g'lonlar bo'lamiz.....	34
10-mavzu	Maydondagi bolalar.....	37
11-mavzu	Zardo'z.....	40
12-mavzu	Bo'lim yuzasidan takrorlash.....	43

III bo'lim. Mo'jizalar olami

13-mavzu	Dunyo mo'jizalari.....	47
14-mavzu	Tabiat mo'jizalari.....	52
15-mavzu	Mo'jiza.....	56
16-mavzu	Dengiz suvi nega sho'r?.....	60
17-mavzu	Telebola. I qism.....	64
18-mavzu	Telebola. II-III qismlar.....	70
19-mavzu	Bo'lim yuzasidan takrorlash.....	77

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga

murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

4-sinf o'qish savodxonligi IV qism kitobini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.

Telegram kanalimiz:

[@Maktablar_uchun_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT qilib beriladi.**

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT

QILMANG.